

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN PEDAGOGIK MAHORATDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

KIRISH

XXI asr — tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan global o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimi, xususan, maktabgacha ta'lim sohasiga yangi talablar va vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglardan mustahkam nazariy va amaliy bilim, pedagogik-psixologik yondashuv, zamonaviy kompetensiyalar, shuningdek, raqamli savodxonlik, inklyuziv yondashuv va hamkorlik madaniyatiga ega bo'lish talab etiladi.

Pedagog xodimlardan bolalarning sog'lom, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim rol o'ynash bilan bir qatorda, ota-onalar va jamoatchilik bilan samarali hamkorlik qilish, tanqidiy va mulohazali fikrlash hamda axloqiy va huquqiy madaniyatni namoyon etish kabilar ham kutiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar va boshqa tegishli mutaxassislar— bolalarning har tomonlama rivojlanishi, sog'lom va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bevosita mas'ul hisoblanadi.

Pedagog kadrlarning pedagogik mahoratini aniqlovchi sinov jarayonlari ta'lim sifatini oshirish, ularning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlash hamda ularning faoliyatini xalqaro standartlar asosida baholash va nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyalarini har tomonlama baholash orqali ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar va boshqa tegishli mutaxassislarning pedagogik mahoratini aniqlash va baholashda qo'llaniladigan test variantlarining strukturasi, qamrovi va kognitiv darajalari, baholash mezonlari, ma'muriy tartib-qoidalari kabi jihatlarni belgilab beradi.

I. Maqsad

Mazkur spetsifikatsiyaning asosiy maqsadi — maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar va boshqa tegishli mutaxassislarning pedagogik mahoratini ishonchli, adolatli va shaffof tarzda baholashni tashkil etish, pedagogik mahorat bo'yicha bilim darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan test variantlari tuzilishi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Spetsifikatsiya aprotatsiya natijalariga ko'ra muntazam takomillashtirilib, zarur qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib boriladi.

II. Pedagogik mahorat bo'yicha bilimlarni baholash uchun test sinovlari bilan qamrab olingan maydonning mazmun sohalari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar va boshqa tegishli mutaxassislarning pedagogik mahorati bo'yicha bilimni baholashda test topshiriqlari quyidagi pedagogik mahorat tarkibiy qismlaridan qamrab olinadi:

1. Pedagogik odob.
2. Pedagogik qobiliyat.
3. Pedagogik muloqot madaniyati.
4. Pedagogik ijodkorlik.
5. “Ilk qadam” dasturi.
6. Pedagogik tajriba

III. Pedagogik mahoratdan bilimlarni baholashda qamrab olinadigan konstruktalar

№	Talablar	Konstruktalar
1	Pedagogik odob	Professional etika va bolaga nisbatan hurmat; bolalar huquqlari, stigma va stereotipdan xoli yondashuv; ota-ona va hamkasblar bilan etik muloqot; maxfiylik, fotosurat, ma'lumotlardan foydalanish qoidalari; bolaga yo'naltirilgan va ijobiy intizom; konfliktlarni odob doirasida bartaraf etish; har xil madaniy-diniy qadriyatlarni hurmat qilish
2	Pedagogik qobiliyat	“Ilk qadam” va davlat standartlari asosida kun tartibi, haftalik reja, markazlar (o'yin, qurish, tabiat, san'at) ni oqilona tashkil etish; yosh xususiyatlariga mos faoliyat (0–7 yosh rivojlanish bosqichlari); differensial yondashuv; o'yin asosida o'qitish; xavfsiz muhitni loyihalash; vaqt, resurs, guruh boshqaruvi; kuzatuv natijalariga tayangan rejalashtirish
3	Pedagogik muloqot madaniyati	Bolalar bilan aniq, qisqa, yoshga mos til; visual, imo-ishora, piktogramma va modellashtirishdan foydalanish; she'riy ritm, qo'shiq va ertaklar orqali nutqni rivojlantirish; ota-onalar bilan hamkorlik suhbatlari, “ota-ona burchagi” axborotlari; faol tinglash va qayta aks ettirish; nutq gigiyenasi (diktsiya, nafas, tembr); ko'p tillilik kontekstida to'g'ri til odobi.
4	Pedagogik ijodkorlik	O'yin ssenariylari va drammatizatsiya yaratish; tabiiy materiallardan STEM/ART faoliyatlari; muammoli vaziyatlar uchun kreativ yechimlar; kichik byudjetda muhitni boyitish; milliy qadriyatlar va mahalliy tabiat resurslarini integratsiya qilish; bolada qiziqish uyg'otuvchi “kashfiyot burchaklari”ni loyihalash
5	“Ilk qadam” dasturi	Dastur tamoyillari va maqsadlarini anglash; bolaga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etish; yosh davrlar bo'yicha rivojlanish xususiyatlarini farqlash; rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish; o'yin asosida o'qitish va integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rejalashtirish; ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish; formatif baholash va kuzatuvni amalga oshirish; sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik qoidalari rioya qilish.
6	Pedagogik tajriba	Diagnostika–reja–amal–baholash siklini yuritish; formatif baholash (kuzatuv, chek-list, anekdot yozuvlar); bolalar portfeli va rivojlanish xaritasini yuritish; dars/markaz tajribalaridan xulosalar chiqarish; xavfsizlik, ovqatlanish va sog'lom turmush ko'nikmalarini faoliyatga singdirish; hamkasblar bilan tajriba almashish.

IV. Test sinovlarida pedagogik mahorat bo'yicha bilimlar quyidagi aqliy faoliyat turlarida baholanadi:

Baholash jarayonida quyidagi kognitiv darajalar asosida test topshiriqlari tuziladi:

- bilish;
- amalda qo'llash;
- mulohaza yuritish;

V. Pedagogik mahorat bo'yicha attestatsiyadan o'tkazishda bilimlarni baholash uchun ishlatiladigan test turlari:

Y 1 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test

Y 2 – bir nechta javobli yopiq test;

Y 3 – moslikni tanlashga oid yopiq test;

Eslatma: Texnik imkoniyatlardan kelib chiqib, testning ayrim turlarida o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

VI. Pedagogik mahorat bo'yicha testlar spetsifikatsiyasi.

Mazmun soha	Bo'lim	Topshiriqlar soni	ball	Test turi
Pedagogik odob	Pedagog kadrlarning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, tarbiyalanuvchilarga va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatda bo'lishiga qo'yiladigan axloqiy talablarni tushunishi va amaliyotda qo'llay olishi	1	2	Y1
Pedagogik qobiliyat	Pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirish hamda amaliy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni ajrata olishi va xulosa chiqarishi	1	2	Y1
Pedagogik muloqot madaniyati	Pedagog kadrlarning ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiradigan suhbat qoidalarini amalda qo'llay olishi	1	2	Y2
Pedagogik ijodkorlik	Pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishdagi yaratuvchanlik qobiliyatini amalga tatbiq etishi	1	2	Y1
"Ilk qadam" dasturi	MTT ta'lim va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim va tarbiya jarayoni, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishni farqlashi, moslashtirishi, xulosa chiqarishi va amaliyotda qo'llay olishi	4	8	Y1 Y2 Y3 Y1
Pedagogik tajriba	Faoliyatni samarali rejalashtirish va boshqarishi, bolalar rivojlanishini kuzatuv va baholash asosida tahlil qilishi, xavfsizlik hamda gigiyena talablarini	2	4	Y2 Y1

	amaliyotga tatbiq etishi, ilg'or tajribalarni o'rganish va hamkasblar bilan almashishi			
Jami		10	20	Y1-6 Y2-3 Y3-1

Eslatma: yuqoridagi ko'rsatkichlar (testlar soni, qaror qabul qilish vaqti, ball, qiyinlik darajasi) sinov natijalariga qarab o'zgarishi mumkin.

Pedagogik mahorat bo'yicha bilimlarni baholash uchun test sinovlari qismlari bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar.

№	Test sinovlari qismlari	Qamralgan mazmun sohalari	Topshiriqlar soni	Ajratilgan vaqt	Ajratilgan ball	Baholanadigan aqliy faoliyat
I.	maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar va boshqa tegishli mutaxassislarning pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarini baholash	I –VI	10	20 daqiqa	20 ball	Bilish, amalda qo'llash, tahlil va mulohaza

VII. Pedagogik mahorat bo'yicha bilimlarni baholash uchun test topshiriqlarining baholash mezonlari:

Har bir sinov test turiga qarab turli xil baholash mezonlariga ko'ra baholanadi:
 agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball;
 agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

VIII. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. F.O. Mirzaeva. "Pedagogika nazariyasi va tarixi", Toshkent, 2023
2. G.S.Alixodjayeva "Инновация в дошкольном образовании" T-2025 darslik
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, takomillashtirilgan ikkinchi nashr, Toshkent, 2022
4. N. Muslimov, D. Sayfurov, M. Usmonboyeva. "Pedagogik kompetensiya va kreativlik asoslari", Toshkent, 2021
5. A. Xoliqov. "Pedagogik mahorat", Toshkent, 2023
6. Aliqulova M. "Innovatsion pedagogika", Toshkent, 2022
7. Sh.A.Sodiqova, Z.Z.Yakubova, L.A.Abdusabirova "Maktabgacha ta'limda ta'lim va tarbiya texnologiyalari " T-2025 darslik

IX. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy normativ-huquqiy asoslar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabr "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabr "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ 637-son Qonuni.
3. VMQ-626 (25.07.2019) — "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"
4. VMQ-802 (22.12.2020) — "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror
5. SanQvaN № 0016-21. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar.